



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHI RAISING F A R M O Y I S H I

2025-yil 5-sentabr

1-11-163-KF/25

Farg‘ona tumani

Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 12-sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

- I. Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining navbatdagi 12-sessiyasi 2025-yil 15-sentyabr kuni soat 10.00ga chaqirilsin.
- II. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning yanvar-iyul oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida;
(Hisobot beruvchi: tuman hokimi X.Inomov)
 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-son Farmonining Farg‘ona tumanidagi ijrosi haqida;
(Hisobot beruvchi: tuman hokimi X.Inomov)
 3. Farg‘ona tumanidagi jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budget” axborot portalida eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflarni saralab olish hamda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida 2025-yil 2-mavsumda shakllangan tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida;

(Hisobot beruvchi: tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov)

4. Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining 19-Arab saylov okrugidan saylangan deputati X.Kattabekovning vakolatini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida;

(Axborot beruvchi: tuman Kengashining Reglament va deputatlik odob-axloqi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Abduraxmonov)

5. Boshqa masalalar

- III. Tuman Kengashiga saylangan deputatlari sessiya boshlanishidan yarim soat avval kelishi va sessiya tugaguniga qadar sessiyani tark etmasliklari haqida ogohlantirilsin.
- IV. Sessiyaga tuman hokimi o‘rinbosari, tumandagi korxona va tashkilot rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda bloggerlar taklif etish tuman hokimligining tashkiliy kadrlar bo‘limi (I.Xo‘janazarov) zimmasiga yuklatilsin.
- V. Ushbu qaror Farg‘ona tuman hokimligining rasmiy veb sayti va ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilish hamda tuman Kengashining navbatdagi 12-sessiyasini OAVlarida jonli efirda yoritish tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (A.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH